

MAKTAB KUTUBXONASINING TA'LIM JARAYONIDAGI ROLI

Karimova Hilolaxon Karimovna

Annotasiya: *Ushbu ilmiy maqolada maktab kutubxonasining ta'lim -tarbiya jarayonidagi o'rni, uning o'quvchilar bilim sifati, mustaqil fikrlash, axborot madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy -nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek zamonaviy maktab kutubxonasining vazifalari, raqamli resurslardan foydalanish, kutubxonachi -pedagog hamkorligi hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *maktab kutubxonasi, ta'lim jarayoni, kitobxonlik, axborot madaniyati, raqamli kutubxona, pedagogik hamkorlik*

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimi jadal rivojlanib borar ekan, o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish, bilim olish uchun keng imkoniyat yaratish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, maktab kutubxonasi ta'lim jarayonining ajralmas bo'lagi bo'lib, o'quvchilarga o'quv, ilmiy-ommabop, badiiy va elektron resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Raqamli axborot oqimining keskin ortib borayotgan sharoitda maktab kutubxonalari informatsion markaz sifatida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktab ta'limi tizimida kutubxona muhim pedagogik, ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bo'g'inlardan biridir. Maktab kutubxonasi o'quvchilarning bilim olish jarayonini qo'llab-quvvatlash, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, mustaqil ta'limni rivojlantirish hamda zamonaviy axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Bugungi globallashtirish davrida o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularga ilm-fan yangiliklarini tezkor yetkazish, turli manbalar bilan ishlashni o'rgatish maktab kutubxonachisining asosiy vazifalaridan sanaladi.

Maktab kutubxonasining nazariy asoslarini o'rganish ta'lim sifatini oshirish, kutubxonachilik faoliyatini takomillashtirish hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi axborot almashinuvini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Maktab kutubxonasi o'quvchilar ongida mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kitobxonlik madaniyati, axborotni izlash va tahlil qilish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Shu bois, har qanday maktab ta'lim-tarbiyasining muvaffaqiyati kutubxonaning qanchalik to'g'ri va samarali faoliyat yuritishiga bevosita bog'liqdir.

Maktab kutubxonalarining nazariy asoslari

Maktab kutubxonasi – bu o'quvchilar va pedagoglar uchun maxsus tashkil etilgan, o'quv jarayonini zarur o'quv, ilmiy, badiiy va ma'rifiy adabiyotlar bilan ta'minlovchi axborot-ma'rifiy markazdir. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quv jarayonini zarur adabiyotlar bilan ta'minlash.

Darsliklar, o'quv qo'llanmalari, metodik materiallar, ilmiy-populyar adabiyotlarni saqlash va foydalanuvchilarga yetkazib berish.

2. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish.



Kitobni tanlash, undan foydalanish, uni e’zozlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

3. Axborot savodxonligini oshirish.

Elektron resurslar, ma’lumotlar bazalari, internet manbalaridan foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatish.

4. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish.

Kitobxonlar konferensiyalari, insholar tanlovi, uchrashuvlar, badiiy kechalar o‘tkazish.

5. Pedagogik jamoaga xizmat ko‘rsatish.

O‘qituvchilarning metodik adabiyotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, yangilangan o‘quv dasturlari bilan ta’minlash.

Shu jihatlari bilan maktab kutubxonasi faqat kitob saqlanadigan joy emas, balki o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi axborot-pedagogik muassasa sifatida namoyon bo‘ladi.

Maktab kutubxonasining tarixiy taraqqiyoti : Maktab kutubxonalari ilk bor XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lib, o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim berish maqsadida tashkil etilgan. XX asr boshlarida kutubxonalar maktablarning ajralmas qismi sifatida shakllanib, o‘quv jarayonining muhim bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qila boshladi.

O‘zbekistonda maktab kutubxonalarining shakllanishi jadid maktablari davriga borib taqaladi. Jadidlar maktabda kitobning roliga katta e’tibor qaratib, o‘quvchining mustaqil o‘qish malakasini rivojlantirishga urg‘u berganlar. Mustaqillikdan so‘ng maktab kutubxonalarini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda maktab kutubxonalari an’anaviy kitob saqlanadigan joy bo‘lishdan tashqari, o‘quvchilarning axborot madaniyatini shakllantiruvchi, ularni ilmiy izlanishlarga jalb etuvchi markazga aylangan.

Maktab kutubxonasining maqsadi va vazifalari qo‘yidagilardan iboratdir:

Maktab kutubxonasining asosiy maqsadi — o‘quvchi va o‘qituvchilarning ta’limiy, tarbiyaviy va madaniy ehtiyojlarini qondirish, ularning axborotga bo‘lgan talabini sifatli resurslar orqali ta’minlashdir.

Asosiy vazifalar:

1. O‘quv jarayonini axborot bilan ta’minlash.
2. O‘quvchilarni kitobxonlikka jalb qilish va o‘qish madaniyatini rivojlantirish.
3. Axborot madaniyatini shakllantirish.
4. O‘quvchilarning mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish.
5. Fan o‘qituvchilariga pedagogik faoliyatida yordam berish.
6. Zamonaviy elektron resurslardan foydalanish imkoniyatini yaratish.

Maktab kutubxonalari quyidagi faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ishlaydi:

Ma’rifiy-axborot faoliyati;

Madaniy-ma’rifiy va tarbiyaviy faoliyat;

Bibliografik faoliyat;

Elektron axborot xizmatlari;

O‘quvchilar bilan individual ishlash;

Shuningdek, kutubxonalar ko‘proq quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. An’anaviy kutubxonalar
2. Raqamli kutubxonalar
3. Aralash tipdagi kutubxonalar

Maktab kutubxonasi faoliyatining samaradorligi uning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq. Kutubxona tuzilmasi odatda quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘ladi:

1. Fondni shakllantirish bo‘limi

Kutubxona fondi – bu maktabdagi barcha adabiyotlar, elektron manbalar, jurnallar, audio va videomateriallar majmui. Fondni shakllantirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

o‘quv dasturlariga moslik; yosh xususiyatlarini hisobga olish; zamonaviy ilmiy va badiiy adabiyotlarni tanlash; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi manbalarni keltirish.

2. Kutubxona fondini hisobga olish va kataloglashtirish

Maktab kutubxonasi fondi alohida ro‘yxatga olinadi, har bir kitob inventar raqam bilan belgilab boriladi. Kitoblar bibliografik tavsifi asosida kataloglar tuziladi:

Alfavitli katalogi; sistemlik katalogi; elektron katalog.

Kataloglashtirish o‘quvchilarga kerakli adabiyotni tez topishga yordam beradi.

3. O‘quv zalining tashkil etilishi

O‘quv zali maktab kutubxonasining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, u yerda o‘quvchilar darsdan tashqari vaqtda mustaqil o‘qish, referat yoki loyihalar tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Maktab kutubxonasi nafaqat o‘quv jarayonining yordamchisi, balki uning ajralmas qismi hisoblanadi. Ta’lim sifatini oshirishda kutubxonaning o‘rni quyidagilar bilan belgilanadi:

Kutubxona orqali o‘quvchilar qo‘shimcha manbalar, ilmiy-populyar kitoblar, elektron darsliklardan foydalanishi mumkin, bu darsda olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Kutubxonada o‘tkaziladigan ma’rifiy tadbirlar o‘quvchilarning dunyoqarashi, ma’naviyati va madaniyatini boyitadi.

Maktab kutubxonalarida kitobxonlik faoliyatini tashkil etish

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maktab kutubxonasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Buning uchun quyidagi usullar qo‘llanadi:

Tematik ko‘rgazmalar tashkil etish;

“Eng faol kitobxon” tanlovi;

Kitob o‘qish tanlovlari;

O‘quvchilar bilan suhbatlar, davra suhbatlari,

Badiiy asarlarni muhokama qilish,

Kitobxonlik kundaliklarini yuritish.

Bu usullar o‘quvchilarni kitobga qiziqtirish, mustaqil o‘qishga rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Maktab kutubxonalarida ommaviy tadbirlar orqali ham kitobxonlikni rivojlantirish muhimdir.

Maktab kutubxonalarida quyidagi tadbirlarni muntazam tashkil etadi:

Kitobxonlik haftaligi;

Ifodali o‘qish musobaqalari;

“Bir o‘quvchi — bir kitob” loyihasi;

Adiblar bilan uchrashuvlar;

Asarlar bo‘yicha sahna ko‘rinishlari

Bunday tadbirlar o‘quvchilarda ijodkorlik, nutq madaniyati, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bulardan tashqari o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash o‘z samarasini beradi

Individual ish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

O‘quvchi psixologiyasi va qiziqishlarini aniqlash, unga mos adabiyot tavsiya qilish, o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyati bo‘yicha kitob tanlash, o‘quvchining kitobxonlik kartasini monitoring qilish.

Individual yondashuv o‘quvchi shaxsining rivojlanishida muhim omildir.

Maktab kutubxonalarida ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarni bilim bilan qurollantirish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va mustaqil o‘qishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Kitobxonlik o‘quvchidagi tafakkur, xotira, nutq, tasavvur hamda ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishida asosiy omillardan biridir. Shu bois maktab kutubxonalarida kitobxonlik faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish nafaqat o‘quv jarayonini samarali qilish, balki yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ham xizmat qiladi.

Bugungi raqamli zamonda yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini saqlab qolish va rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Mazkur malaka ishida maktab kutubxonalarida kitobxonlik faoliyatining nazariy asoslari, tashkil etish usullari, kutubxonachi faoliyati hamda samaradorlikni oshirish yo‘llari yoritiladi.

Maktab kutubxonalarida kitobxonlik faoliyatining mohiyati — bu o‘quvchilarning badiiy, ilmiy-ommabop va ma’rifiy adabiyotlar orqali bilim, tarbiya va estetik zavq olishi, o‘qishga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish va rivojlantirish jarayonidir. Maktab kutubxonasidagi kitobxonlik faoliyati quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

1. Adabiyotlarni targ‘ib qilish.

O‘quvchilar yoshiga mos, qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega kitoblarni tanlash, tavsiya etish.

2. Kitob bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Annotatsiya o‘qish, katalogdan foydalanish, axborot izlash, kitobni to‘g‘ri tutish va saqlash madaniyatiga o‘rgatish.

3. O‘quvchining mustaqil o‘qishga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantirish.

Kitoblar orqali o‘zini rivojlantirish, keng fikrlash va izlanishga qiziqishni kuchaytirish.

4. Ma’naviy tarbiya berish.

Vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, to‘g‘rilik, mehr-shafqat kabi sifatlarni shakllantirishda badiiy adabiyotning roli katta.

Kitobxonlik faoliyati o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlariga, qiziqishlariga va ta’lim dasturiga mos tarzda tashkil etilishi zarur.



Maktab kutubxonasida kitobxonlik faoliyatini tashkil etishning an’anaviy va zamonaviy shakllari mavjud. Ularning uyg’un holda qo‘llanilishi kitobxonlik samaradorligini oshiradi. Ya’ni- An’anaviy shakllar-bunda “Kitob ko‘rgazmalari”

Bayramlar, mualliflar yubileylari, tarixiy sanalar asosida tematik ko‘rgazmalar tayyorlanadi.

Masalan: “Alisher Navoiy hikmatlari”, “Vatan — muqaddas”, “Ilm — nur manbai”.

“ Adabiy-badiiy kechalar”-Mualliflar ijodi, asarlar tahlili, she’rlar o‘qish kabi tadbirlar o‘quvchilarning badiiy didini rivojlantiradi

“ Kitobxonlar konferensiyasi”-Muayyan asar o‘qib chiqilgach, o‘quvchilar o‘z mulohazalarini bildirishadi, fikr almashadilar.

Sinf kutubxonalari bilan ishlash-sinf rahbarlari bilan hamkorlikda yoshga mos adabiyotlar tanlash va ulardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Elektron kitobxonlik, Onlayn tanlovlar, QR-kodli kitob tavsiyalari, Media resurslardan foydalanish, Media resurslardan foydalanish, Elektron darsliklar, PDF kitoblar, audiokitoblar orqali zamonaviy o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali zamonaviy shakllarda kitobxonlik faoliyatini tashkil etish mumkin.

“Eng faol kitobxon”, “Eng yaxshi kitob taqrizi” kabi onlayn loyihalar yoshlarning motivatsiyasini oshiradi.

Kutubxona devorlariga QR-kod o‘rnatilib, o‘quvchilar smartfon orqali kitob tavsiyalari va qisqa mazmun bilan tanishadilar.

Kitob asosida yaratilgan filmlar, audio hikoyalar, ijodiy roliklar yordamida o‘quvchilarni kitobga qiziqtirish.

Zamonaviy shakllar o‘quvchilarning axborot savodxonligini oshirish, kitobxonlik jarayonini interaktiv qilishga xizmat qiladi.

Maktab kutubxonalari zamonaviy ta’limdagi o‘rni

Zamonaviy ta’lim tizimida maktab kutubxonasialoxida axmiyatga ega bo‘lgan muassasaxisoblanadi. U nafaqat kitob saqlashjoyi, balki bilim manbayi,axborot markazi,tarbiyamuxit va o‘quvchilarning ma’naviy iqtidorini rivojlantiruvchi maskan vazifasini bajaradi.

Maktab kutubxonasi –o‘quv jarayonini ajralmas qismi bo‘lib o‘quvchilarning bilim olishi, mustaqil o‘qishi va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muxim o‘rin tutadi.U maktabning ta’lim- tarbiya tizimini boyitadi, o‘qituvchilarga metodik yordam beradi va o‘quvchilarni madaniy savyasini oshiradi. Kutubxona turli fanlarga oid darsliklar, qo‘shimcha adabiyotlar, ilmiy ommabop kitoblar orqali o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi. Undagi ma’lumotlar o‘quvchiga darsdagi mavzularni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Kutubxona o‘quvchilarga mustaqil o‘qishini qo‘llab-quvvatlaydi, axborot madaniyatini shakllantiradi. Refarat,ma’ruza, loyixa ishlarini tayorlashda ko‘maklashadi. qo‘llanmalar bilan ta’minlaydi.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ta’lim tizimi jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan bir paytda maktab kutubxonalari o‘rni yanada ortib bormoqda. Zamonaviy kutubxona nafaqat kitoblar saqlanadigan joy, balki o‘quvchi shaxsini intellektual, ma’naviy va madaniy jihatdan rivojlantiruvchi muhim axborot maskani



hisoblanadi. Maktab kutubxonasi ta’lim jarayonining ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib, o‘quvchilarni zarur bilim manbalari bilan ta’minlaydi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘qishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyani oshiradi. Shu nuqtai nazardan olganda, maktab kutubxonasi zamonaviy ta’limning asosiy poydevorlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli ta’lim sharoitida kutubxona faoliyati auyidagilarda aks etadi:

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’limni tubdan o‘zgartirmoqda. Shu bois maktab kutubxonalarining axborot resurslari quyidagilarni o‘z ichiga olishi zarur:

Elektron darsliklar;

elektron kataloglar;

Virtual ko‘rgazmalar;

Audiokitoblar;

Onlayn kutubxonalar bilan integratsiya.

Raqamli resurslar o‘quvchilarning mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi markazlashtirilgan yondashuv ustunlik qilmoqda. Bu esa o‘quvchining mustaqil ravishda bilim olishi, izlanishi va o‘z bilimni kengaytirishiga imkon beruvchi axborot muhitini yaratishni talab qiladi. Maktab kutubxonasi aynan shunday muhitni shakllantiruvchi markaz bo‘lib, o‘quvchilarga dars davomida va undan tashqari paytlarda kerakli manbalarni topish, ular bilan ishlash va tahlil qilish imkonini yaratadi.

Kutubxonaning asosiy ahamiyatlaridan biri – o‘quv jarayonini ilmiy-uslubiy va ma’lumotnoma resurslari bilan ta’minlash. Har bir fan bo‘yicha qo‘shimcha adabiyotlar, ensiklopediyalar, lug‘atlar, qo‘llanmalar mavjudligi darsning samaradorligini oshiradi. O‘quvchilar darsda olgan bilimlarini mustahkamlash, savollariga javob topish, yangi ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida kutubxonaga murojaat qiladilar.

Shuningdek, maktab kutubxonasi kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Badiiy adabiyot o‘quvchilarda estetik did, ma’naviy dunyoqarash, tasavvur va tafakkurni boyitadi. Kitob o‘qish bola nutqining o‘shishiga, fikrlash tezligining oshishiga, mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida maktab kutubxonasining vazifalari keng va ko‘p qirrali bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Axborot-resurs bilan ta’minlash

Maktab kutubxonasi o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun ilmiy, badiiy, o‘quv-uslubiy, ensiklopedik hamda zamonaviy elektron resurslarni taqdim etadi. Bu esa dars jarayonining sifatini oshiradi va o‘quvchilarni chuqurroq bilim olishga undaydi.

2. Mustaqil ta’limni rivojlantirish

Mustaqil o‘qish va izlanish ko‘nikmalari bugungi ta’limning asosiy xizmatlaridan biri hisoblanadi. Kutubxonada yaratilgan qulay sharoitlar o‘quvchilarning mustaqil o‘qish kulturasini shakllantiradi.

3. Axborot madaniyatini shakllantirish

Zamonaviy ta’limda eng muhim ko‘nikmalardan biri – axborot bilan ishlash qobiliyatidir. Kutubxonachi o‘quvchilarni katalog bilan ishlashga, ma’lumot izlashga, kerakli manbani tanlashga, kitobdan maqsadli foydalanishga o‘rgatadi.

4. Ma’naviy tarbiya va kitobxonlikni targ‘ib qilish

Kutubxona ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali o‘quvchilarda estetik va axloqiy tarbiyani shakllantiradi. Kitobxonlik haftaliklari, adabiy uchrashuvlar, muallif kechalari, ifodali o‘qish tanlovlari o‘quvchilarni kitobga yaqinlashtiradi.

Maktab kutubxonachisi fan o‘qituvchilari bilan muntazam hamkorlikda ishlaydi:

Darslik va qo‘shimcha adabiyotlar tanlashda yordam beradi;

Adabiyotlar bo‘yicha metodik tavsiyalar beradi;

Mavzuga mos bibliografik ro‘yxatlar tuzadi;

Fan oyliklarida faol ishtirok etadi.

Bu hamkorlik o‘quv jarayonining sifatini oshiradi.

Maktab kutubxonalarini modernizatsiya qilish o‘quvchilarni yangi formatdagi axborot olamiga moslashtiradi. Buning uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

Kutubxona ichini dizayn qilish;

Multimedia burchaklari tashkil etish;

Wi-Fi zonalar yaratish;

Kompyuterlar va planshetlar bilan ta’minlash;

“Aqlli kutubxona” tizimini joriy qilish.

Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikirli mutaxassislar tayorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunda imkoniyatlardan foydalanish avvalo yoshlikdan, maktab davridan boshlanadi. Yosh avlodni bilim olishida, shaxs bo‘lib kamol topishida maktab kutubxonalarining o‘rni borligi barchaga ma’lumdir.

Xulosa

Maktab kutubxonasi zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual, ma’naviy, madaniy va axborot savodxonligini shakllantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. U o‘quv jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, mustaqil o‘qish va izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda maktab kutubxonalarining roli yanada ortib, ular ta’limni innovatsion resurslar bilan ta’minlovchi axborot-ma’naviyat markaziga aylanib bormoqda.

Maktab kutubxonasi ta’lim jarayonining eng muhim bo‘g‘inlaridan biridir. U o‘quvchilarni ilmiy-axborot manbalari bilan ta’minlaydi, ularning intellektual salohiyatini oshiradi, kitobxonlik madaniyatini rivojlantiradi. Raqamli ta’lim sharoitida kutubxonalarning o‘rni yanada ortib, ular axborot-ta’limiy markazga aylanmoqda.

Maktab kutubxonasining samarali faoliyat yuritishi o‘quvchilarni barkamol inson etib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Maktab kutubxonasi ta’lim jarayonining uzviy bo‘lagi bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual va ma’naviy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. U faqat kitoblar saqlanadigan joy emas, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, izlanishga, ilmiy-nazariy bilimlarini boyitishga undovchi axborot-ma’rifiy markazdir.

Kutubxonachining malakasi, kutubxonaning moddiy-texnik ta’minoti, zamonaviy elektron resurslar bilan boyitilishi maktab ta’limining sifatini oshirishda beqiyos rol o‘ynaydi.



Shu bois maktab kutubxonalarini rivojlantirish, ularning faoliyatini takomillashtirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.G'aniyeva. Ta'lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish. -T.: , 2013. 380 b.
2. E.Yo'ldashev. Kutubxona fondlarini tashkil etish. -T.: , 2002. 92 b.
3. Z. Berdiyeva. Kutubxonashunoslik. T.: - 2013. 397 b.
4. Mahoratli pedagog. 2023-yil №12
5. Ziyonet.uz — elektron ta'lim resurslari